Key words: management accounting, accounting, financial accounting, management process, accounting information, management information, differences and relationships.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль управленческого учета на предприятии и рассматривается его уникальность. В качестве основного вопроса уделяется внимание аспектам финансового учета. Также с помощью таблиц рассмотрены определения, данные учеными в области управленческого учета, основной акцент сделан на установлении отличий от финансового учета. В конце исследования формируются авторские выводы и представлены результаты двух видов учета – управленческого и финансового учета.

Ключевые слова: управленческий учет, бухгалтерский учет, финансовый учет, процесс управления, бухгалтерская информация, управленческая информация, различия и взаимосвязи.

## KIRISH

Bugungi kunda buxgalteriya hisobi an’anaviy ravishda ikkita quyi tizimga ajratiladi va bo‘linadi. Bular, moliyaviy va boshqaruv hisobidir. Ushbu bo‘linish tashqi va ichki buxgalteriya hisobining maqsadlari, vazifalaridagi farqli jihatlar bilan bog‘liqlikdir.

Korxonaning boshqaruv jarayoni va vujudga keladigan masalalarga yechimlar ketma-ketligi ma’lum bir shaklida amalga oshiriladi, ularning natijadorligi, samaradorligi faqat nazorat qilinadigan parametrlarning holati va xatti-harakatlarining ishonchligiga bog‘liqdir. O‘z vaqtida aks ettirilgan oraliq va yakuniy natijalar to‘g‘risida ma’lumot olish asosida samarali va oqilona boshqaruvni tekshirish mumkin. Darhaqiqat korxonaning boshqaruv jarayonining barcha bosqichlari ma’lum bir axborotni qayta ishlash bilan bog‘liq bo‘ladi.

Zero, asoslangan ma’lumotsiz boshqaruv maqsadlarini aniqlash, vaziyatni baholash, muammoni shakllantirish, qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilish mumkin emas. Mulkdor korxonasini boshqarish uchun iqtisodiy ma’lumotlar foydalangan holda ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatni rejalashtirish, hisobga olish va tahlil qilish tizimlarini shakllantiradi. Zamonaviy axborot tizimlari, kompyuterlar ma’lumotlarini qayta ishlash nuqtayi nazardan ushbu tizimlarning funksiyalari birlashtirishga yordam beradi. Axborotni shakllantirish nafaqat resurslarning mavjudligi, harakati va ishlatilishining haqiqiy qiymatlarini o‘lchash va qayd etish, balki ularni tahlil qilish funksiyalarini bajaradigan moliyaviy va boshqaruv hisobiga yuklatiladi. Bunda iqtisodiy tahlil buxgalteriya hisobining barcha turlariga teng ravishda xos bo‘lishi kerak, bu ularning ajralmas qismi hisoblanadi.

Korxona buxgalteriya hisobida uning daromadlari va xarajatlari, debitorlik va kreditorlik qarzlari, moliyaviy investitsiyalar, moliyalashtirish manbalarining holati, soliq to‘lovlari bo‘yicha davlat bilan munosabatlar va boshqalar to‘g‘risida ma’lumotlar hosil bo‘ladi. Korxona buxgalteriya ma’lumotlarining iste’molchilari asosan tashqari foydalanuvchilar: soliq organlari, banklar, birjalar, boshqa moliya institutlari, shuningdek, yetkazib beruvchilar, xaridorlar, potensial va haqiqiy investorlar, korxona ishchilari hisoblanadi. Korxonaning moliyaviy hisobotlar tijorat siri emas, nashrga ochiq va ba’zi hollarda mustaqil auditor yoki auditorlik firmasi tomonidan tasdiqlanishi lozim bo‘ladi.

Buxgalteriya hisobini boshqarish tizimi boshqaruv maqsadlari uchun zarur bo‘lgan tahliliy bo‘limlarda xarajatlar, daromadlar va faoliyat natijalari to‘g‘risida ma’lumot yaratadi. Shu bilan birga, korxona rahbariyati boshqaruv obyektlarini qaysi bo‘limlarda tasniflash va ularni qanday hisobga olishni mustaqil ravishda hal qiladi. Boshqaruv hisobi ma’lumotlari korxona rahbariyati va menejerlari uchun mo‘ljallangan tijorat siri hisoblanadi va qat’iy maxfiydir. Soliq va moliyaviy hisob qonun va amaldagi standartlar bilan qat’iy tartibga solinadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirgi kunda ham ilmiy tadqiqotlarda boshqaruv hisobi va uning tizimi to‘g‘risidagi ta’rifi munozarali masaladir. Zero, olimlar soha mutaxassislari umumiy barcha uchun mos keladigan ideal ta’rif hali shakllanmagan va u yo‘q, deb hisoblaydi. Mualliflarning fikrlari turlicha boshqaruv hisobini so‘zning tor ma’nosida, ya’ni buxgalteriya hisobining quyi tizimi sifatida tushunishdan, shu jumladan, ma’lumotlarni to‘plash, ro‘yxatdan o‘tkazish va umumlashtirishdan tortib, uni keng ma’noda barcha boshqaruv funksiyalarini qamrab oladigan korxonani boshqarish tizimi sifatida talqin qiladi: rejalashtirish, tashkil etish, buxgalteriyani to‘g‘ri yuritish, nazorat, tahlil, qaror qabul qilish. Ya’ni, majoziy ma’noda, “boshqaruv hisobi” kombinatsiyasida ba’zi mualliflar “buxgalteriya hisobi” so‘ziga, boshqalari – “boshqaruv”so‘ziga semantik urg‘u berishadi [1].

Shu asnoda quyidagi jadvalda boshqaruv hisobi ta’riflariga misollar keltirib o‘tsak (1-jadval). Shunda ushbu tarifga berilgan turli olimlarning va mutaxassislarning umumiy va o‘xshash jihatlarini namoyon etish qulay bo‘ladi.

1-jadval. Boshqaruv hisobiga berilgan ta’riflar

| T/r | Muallif | Berilgan ta’rif |
|---|---|---|
| 1 | **AQSH buxgalterlari Milliy Assotsiatsiyasi** | “Boshqaruv xodimlari tomonidan ishlab chiqarish faoliyati va resurslar samaradorligini rejalashtirish, baholash va nazorat qilish uchun foydalanadigan moliyaviy ma’lumotlarni aniqlash, o‘lchash, to‘plash, tahlil qilish, tayyorlash, birlashtirish va uzatish jarayoni” [2]. |
| 2 | **C.T. Horngren va J. Foster** | “Boshqaruv hisobi – bu har qanday obyektlarni boshqarish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni aniqlash, o‘lchash, yig‘ish, tizimlashtirish, tahlil qilish, parchalash, talqin qilish va uzatish” [3]. |
| 3 | **A.X. Pardayev va Z.A. Pardayeva** | “Boshqaruv hisobi – xo‘jalik yurituvchi subyekt axborot tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ishlab chiqarish faoliyatini boshqarishning samaradorligi ko‘p jihatdan xo‘jalik yurituvchi subyektning tarkibiy tuzilmalari, bo‘limlari va bo‘linmalari faoliyatlari to‘g‘risida olinadigan operativ (tezkor) ma’lumotlarga bog‘liq. Boshqaruv hisobi ana shunday ma’lumotlarni boshqaruv qarorlarini to‘g‘ri qabul qilish maqsadida xo‘jalik yurituvchi subyekt ichidagi turli darajadagi boshqaruv rahbarlari uchun shakllantiradi” [4]. |
| 4 | **Z.N. Qurbanov va K.M Misirov** | “Boshqaruv hisobi menejerlarga qaror qabul qilishda yordam beradigan moliyaviy va nomoliyaviy axborotlarni o‘lchaydi va ular haqida hisob beradi. Moliyaviy hisobda aks ettirilgan moliyaviy axborot iste’molchilar, hukumat va tashqi tomonlar uchun chop etilishini kafolatlash menejerlarning majburiyatidir” [5]. |
| 5 | **A.D. Sheremet** | “Boshqaruv hisobi – bu bitta tashkilot doirasida o‘z boshqaruv apparatini tashkilot faoliyatini rejalashtirish, to‘g‘ri boshqarish va nazorat qilish uchun foydalaniladigan ma’lumotlar bilan ta’minlaydigan buxgalteriya hisobi quyi tizimi. Ushbu jarayon boshqaruv apparati o‘z funksiyalarini bajarishi uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni aniqlash, o‘lchash, yig‘ish, tahlil qilish, tayyorlash, talqin qilish, uzatish va qabul qilishni o‘z ichiga oladi” [6]. |
| 6 | **M.A. Vaxrushin** | “Boshqaruv hisobi tashkilot uchun buxgalteriya hisobining mustaqil sohasi sifatida belgilanishi mumkin, bu uning boshqaruv apparatini umuman tashkilotni rejalashtirish, boshqarish, nazorat qilish va baholash uchun foydalaniladigan ma’lumotlar bilan ta’minlaydi. uning tarkibiy bo‘linmalari” [7]. |
| 7 | **O.L. Ostrovskaya, M.A. Osipov, A.Ye. Karlik, Ye.B. Abdalova.** | “Boshqaruv hisobi bugungi kunda dinamik o‘zgaruvchan raqobat sharoitida samaradorlikni boshqarish, tashkilot qiymatini oshirish va barqaror rivojlanishning uzluksizligini ta’minlash uchun resurslardan foydalanish to‘g‘risida maqsadli ma’lumotlarni to‘plash, aniqlash, qayta ishlash va taqdim etish jarayonidir.” [8]. |



TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Jadvaldan ko'rinadiki, "hozirda boshqaruv hisobining ta'rifi haqida fikr yuritganda, uning funksiyalari va xojalik yurituvchi subyektlardagi boshqarish tizimi tutgan o'rni, turli nazariyotchilar, shuningdek, boshqaruv vakillari tomonidan turli yo'llar bilan izohlanadi" [9].

Tadqiqotlarga asoslangan holda bizning fikrimizcha, boshqaruv hisobi – bu buxgalteriya hisobining rejalashtirish, nazorat qilish, tahliliy bo'limlaridan tashkil topgan daromadlar, xarajatlar va biznes natijalarini tahlil qilish, qisqa va uzoq muddatli istiqboldagi korxonaning moliyaviy natijalarini samaradorligini, natijadorligini optimallashtirish maqsadida turli xil boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilish tizimidir.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda muallif tomonidan umum-metodologik usullar foydalangan bo'lib, ular quyidagilardan iborat: tasniflash, induksiya-deduksiya va ilmiy ma'lumotlarni tizimlashtirish, shuningdek, tadqiqotning nazariy va uslubiy asosi bo'lib soha olimlarining asarlari, mutaxassislarning fikrlari, iqtisodiy ilmiy-uslubiy adabiyotlar, ilmiy konferensiyalar materiallari hisoblanadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Umum qabul qilingan konsepsiyaga ko'ra korxonada buxgalteriya hisobi uch turga bo'linadi: operatsion, buxgalteriya hisobi va statistik hisobi, shundan kelib chiqqan holda buxgalteriya hisobini ham moliyaviy, boshqaruv va soliq hisobi ajratish maqbul yechimdir, ular orasidagi bo'linishni quyidagi rasmda keltirib o'tdik (1-rasm).




1-rasm. Buxgalteriya hisobi turlari

Buxgalteriya hisobining barcha turlarini korxonaning moliyaviy holati to'g'risida ma'lumot to'plash, uni umumlashtirish, hujjatlarda aks ettirish ga xizmat qiladi, shuningdek, ushbu ma'lumotlar orqali korxonaning butun moliyaviy jarayonlari kuzatiladi. Ammo korxona mulkdorlari uchun boshqaruv hisobi ko'proq kerakli ma'lumotlarni taqdim etadi, shu bilan birga, soliq organlari va statistika organlariga ma'lumot berish uchun buxgalteriya hisobi va uning moliyaviy hisobotlari zarur. Shunga asoslanib, biz ushbu ikkita hisobot (boshqaruv va moliyaviy hisobi) o'rtasidagi farqlar va o'xshashliklarni tahlil qilishimiz mumkin buni quyidagi jadval yordamida amalga oshiramiz (2-jadval).

2-jadval. Boshqaruv va moliyaviy hisobi o'rtasidagi asosiy farqlar.

| T/r | Tasniflash xususiyatlari | Boshqaruv hisobi | Moliyaviy hisobi |
|---|---|---|---|
| 1 | Ma'lumot foydalanuvchilari | Korxona boshqaruv organi, menejerlari va xodimlari. | Tashqi foydalanuvchilari |
| 2 | Hisobining maqsadi | Obyektiv boshqaruv qarorlarini qabul qilishlari uchun ma'lumot tayyorlash. | Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash |
| 3 | Qonuniy talablarga muvofiqligi | Foydani oshirish nuqtai nazaridan ma'lumot tayyorlanadi. | Rahbariyatining xohishidan qat'i nazar, moliyaviy hisobotlarni taqdim etishi shart. |
| 4 | Axborotning aniqlik darajasi | Ma'lumot qisqa vaqt ichida tayyorlanadi, taxminiy xarakterga ega. | Hisobot ma'lumotlari aniq bo'lishi kerak, aks holda bu tashqi foydalanuvchilarning korxonaning e'lon qilingan hisobotlariga ishonchsizligiga olib kelishi mumkin. |
| 5 | Hisobi ko'lami | Ma'lumotlar korxonaning har bir tarkibiy bo'linmasi uchun tayyorlanadi. | Ma'lumotlar butun tashkilot faoliyatini tavsiflaydi. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 6 | Buxgalteriya hisobi tamoyillari | Ma'lumotlar tashkilotni boshqarish uchun yeng maqbul va qulay bo'lgan shaklda, unga qulay bo'lgan qoidalarga muvofiq tayyorlanadi. | Ma'lumotlar qonunchilik normalari va talablariga hamda belgilangan buxgalteriya amaliyotiga mos kelishi kerak. |
| 7 | Vaqt me'yorlari | Ma'lumotlar prognoz xarakteriga ega, o'tgan vaqt holatini hisobga olgan holda korxonaning kelajakdagi faoliyatini tavsiflaydi. | Ma'lumotlar allaqachon bajarilgan operatsiyalarni va iqtisodiy faktlarni tavsiflaydi, qanday bo'lganligini ko'rsatadi. |
| 8 | Axborotning ochiqligi darajasi | Ma'lumotlar tijorat siridir, nashr etilmaydi va maxfiydir. | Ma'lumotlar tijorat siri yemas. Ular ochiq, ommaviy va mustaqil auditorlar tomonidan o'rganilishi mumkin. |
| 9 | Ishlatiladigan ko'rsatgichlar | Ma'lumot pul va pul bo'lmagan ko'rsatgichlarda taqdim etilishi mumkin. | Ma'lumotlar pul birligida va milliy valyutada keltirilgan. |
| 10 | Axborotni taqdim etish me'yorlari | Axborot kerak bo'lganda tayyorlanadi, kunlik, haftalik, oylik tuzilishi mumkin. | Qonunchilik normalariga muvofiq (yillik, yarim yil, choraklik, oylik) tayyorlanadi. |

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, boshqaruv hisobi moliyaviy hisobiga bog'liq emas, bu mustaqil ravishda mavjud bo'lgan buxgalteriya hisobining alohida turi, deb o'ylash mumkin, biroq aslida, bunday emas. Ha, boshqaruv hisobi moliyaviy hisobdan farq qiladi, uning o'ziga xos xususiyatlari bor, lekin umumiy narsa ham bor. Buni quyidagi xususiyatlar bilan tasdiqlash mumkin (2-rasm).




2-rasm. Boshqaruv va moliyaviy hisobining o'zaro bog'liq tizimlari

Buxgalteriya hisobining ikkala turi ham bir xil ma'lumotni talab qiladi. Faqat boshqaruv hisobida korxona to'g'risida aniqroq ma'lumot olish uchun ma'lumotlar batafsilroq, dinamikada o'rganiladi. Bu yerda, asosan, rahbariyat tomonidan boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar talabga ega. Boshqaruv hisobining bunday xarakterli xususiyatlari tufayli boshqaruv korxonaning holatini kuzatib boradi, prognozlar tuzadi va faoliyat natijalariga ta'sir qiladi [10].

Boshqaruv hisobining asosiy obyektlari korxonaning xarajatlari va daromadlari hisoblanadi, shuningdek, ularni taqqoslash natijalari orqali olingan ma'lumlarga suyanadi. Xususan, boshqaruv hisobi "javobgarlik markazlari" va "ichki hisobot tizimi" kabi buxgalteriya obyektlarini ajralib o'rganilishi shart.

Boshqaruv hisobining maqsadi – boshqaruv organiga samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda yordam berishdan iborat, u buning uchun quyida vazifalarni amalga oshiradi:

1) ichki biznes jarayonlari va ishlash natijalari to'g'risida ishonchli va to'liq ma'lumotni shakllantirish va ushbu ma'lumotni ichki boshqaruv hisobotlarini tuzish orqali korxona rahbariyatiga taqdim etish;

2) korxona va uning javobgarlik markazlarining iqtisodiy samaradorligini rejalashtirish va nazorat qilish;

3) mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) ning haqiqiy tannarxini hisoblash va belgilangan normalar, standartlar, smetalardan og'ishlarni aniqlash;

4) rejalashtirilgan natijalardan og'ishlarni tahlil qilish va og'ish sabablarini aniqlash;

5) mulk, moddiy, pul va mehnat resurslarining mavjudligi va harakati ustidan nazoratni ta'minlash;

6) qaror qabul qilish uchun axborot bazasini shakllantirish;
7) korxona samaradorligini oshirish uchun zaxiralarni aniqlash.

Boshqaruv hisobida qoʻllaniladigan metodlar (usullar) juda xilma-xildir, chunki u koʻplab soha fanlarning usullarini birlashtiradi: buxgalteriya hisobi (operatsion, buxgalteriya hisobi, statistik), tahlil, strategik va operatsion rejalashtirish va boshqarish, korxona iqtisodiyoti, statistika, matematika va boshqalar.

Boshqaruv hisobining korxona faoliyatidagi rolini hisobga olgan holda shuni taʼkidlash kerakki, tarixan u koʻpincha moliyaviy hisobiga nisbatan ikkinchi darajali ahamiyatga ega boʻlgan va koʻplab korxonalarda bu hali ham shunday. Biroq, biznesning oʻsishi, texnologiyadagi rivojlanish, oʻzgarishlar, shuningdek, soʻnggi oʻn yilliklarda boshqaruvning bilim darajasining yuksalishi hamda oshishi boshqaruv hisobining rivojlanishini kuchaytirdi va uning moliyaviy hisobidan koʻra koʻproq tan olinishiga olib keldi. Fikrimizcha, istiqbolda bu rolning yanada yuksaladi va oshishini davom ettiradi.

Korxonani boshqarish tizimi, boshqa har qanday boshqaruv tizimi singari, boshqaruv subyekti, boshqaruv obyekti va ularning oʻzaro bogʻliqligi toʻplami sifatida ifodalanishi mumkin [11]. Boshqaruv subyekti boshqaruv obyektiga uzatiladigan buyruqlar, signallar koʻrinishidagi boshqaruv effektini rivojlantiradi. Boshqarish obyekti boshqaruv harakatini sezadi va unga uzatiladigan boshqaruv signaliga muvofiq harakat qiladi [12]. Obyekt nazorat harakatini qabul qilgani va unga munosabat bildirganligi, boshqaruv predmeti orqali oʻrganadi, boshqaruv tizimi diagramma shaklida ifodalanishi mumkin(3-rasm).




3-rasm. Umumiy boshqaruv tizimi sxemasi

Korxonani boshqarish tizimiga qarorlarni qabul qilish boʻyicha maʼlum vakolatlarga ega boʻlgan menejerlar, boshqaruvning barcha darajalaridagi shaxslar kiradi. Boshqaruv hisobining oʻrni boshqaruv qarorlarini tayyorlash va qabul qilish bosqichida namoyon boʻladi. Shunday qilib, boshqaruv hisobi barcha boshqaruv funksiyalarida ishtirok etadi.

Bugungi kunga kelib boshqaruv hisobini amalga oshiruvchi kadrlarni tanlash tobora dolzarb masala sifatida kun tartibiga chiqmoqda uning vazifalari, mutaxassislik malakasi va ish majburiyatlari doirasiga yuqori talablar qoʻyilmoqda. Shu tariqa, boshqaruv hisobi boʻyicha mutaxassisning funksiyalari ham belgilanmoqda ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- boʻlimlar va umuman korxonaning maqsad va rejalarini muvofiqlashtirish;
- belgilangan maqsadlarga erishishda rahbariyatga yordam berish;
- boshqaruv hisobi tizimini yaratish va yuritish boʻyicha ishlarni tashkil etish;
- kompaniya faoliyatining iqtisodiy natijalarini rejalashtirish va nazorat qilish jarayonlarini uzluksiz amalga oshirish;
- umuman korxona uchun, shuningdek alohida boʻlimlar va mahsulotlar uchun xarajatlar va natijalar boʻyicha shaffoflikni taʼminlash;
- korxonaning rentabelligi va likvidligini boshqarish uchun uslubiy va instrumental bazani yaratish;
- boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun materiallarni ishlab chiqish va ularni korxona rahbariyatiga taqdim etish;
- menejerlarga harakatlarning eng samarali variantlarini tanlash, xarajatlar va natijalarni boshqarishda yordam berish boʻyicha maslahat berish.

Ushbu funksiyalar boshqaruv qarorlarini qabul qilishda boshqaruv hisobi mutaxassisi muhim rol oʻynashini koʻrsatadi. Masʼuliyatli rol boshqaruv hisobi boʻyicha mutaxassisga maʼlum huquqlarni berishni oʻz ichiga oladi, masalan:

- barcha ma'lumotlarga, shu jumladan, maxfiy ma'lumotlarga kirish;
- analitik asosli va tahlillar bilan mustahkamlangan o'zingizning alohida fikrlarini o'z ichiga olgan hisobotlar tayyorlash huquqi;
- qabul qilinishi kerak bo'lgan qarorlarining professional darajasini oshirish maqsadida ularni kechiktirish huquqi.

Shunday qilib, boshqaruv hisobi bo'yicha mutaxassis keng mas'uliyat va maxsus huquqlarga ega bo'lganligi sababli, ushbu lavozimga tayinlanganda xodimga nisbatan nazariy tayyorgarlik va amaliy ko'nikmalarga juda yuqori talablar qo'yiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, biz ushbu tadqiqot doirasida korxonalarida boshqaruv hisobining o'rni uning moliyaviy hisobdan farqli jihatlari muhokama etdik, shunga asoslangan holda qisqacha qilib quyidagilarni alohida aytishimiz mumkin:

- moliyaviy hisobi tashkilotning iqtisodiy faoliyatining sodir bo'lgan barcha faktlarini, ya'ni uning tarixini aks ettiradi;
- boshqaruv hisobi nafaqat korxonaning o'tmishini, balki hozirgi, kelajakdagi vaziyatni ham o'rganadi;
- boshqaruv hisobi kelajakni bashorat qilish va korxonaning keyingi rivojlanishini rejalashtirishga imkonini beradi;
- ushbu ikkala hisob turi bir birini to'ldiradi va hal qilinishi qiyin vaziyatlarda o'zaro birlashish orqali masalani hal etadi;
- ikkala hisob tizimining umumiy sharti-bu o'rganish va tahlil qilish buning uchun ular doimo buxgalteriya hisobiga murojaat etadi;
- moliyaviy hisob ma'lumotlari aksiyadorlar va investorlar tomonidan, boshqaruv hisobi esa boshqaruv vakillari, menejerlar tomonidan iste'mol qilinadi;
- boshqaruv hisobi asosan korxona ichida uni batafsilroq o'rganish uchun zarur hisoblanadi;
- boshqaruv hisobi moliyaviy hisobiga qaraganda kengroq tizim va tushunchadir.

Umumiy holda shuni ta'kidlash kerakki, moliyaviy va boshqaruv hisobi yagona buxgalteriya hisobining o'zaro bog'liq va bir birini to'ldiruvchi tarkibiy qismlaridir. Biroq ushbu ikki hisob tizimi iqtisodiy faoliyatning har bir fakti bo'yicha o'ziga xos tarzda aks ettiriladi, bu ularning mutlaqo boshqa maqsadlari, vazifalari va yakuniy natijalari ko'zlash bilan izohlanadi, shunday ekan, ushbu mavzu kelajakda yana ko'plab tadqiqotlar uchun asos bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1. Управленческий учет: учеб. пособие / А. В. Ильина, Н. Н. Илышева. – Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2016. – 180 с.
2. https://aaahq.org/ – AQSH buxgalterlari Milliy Assotsiatsiyasi rasmiy sayti.
3. Хорнгрен Ч., Фостер Дж., Датар Ш. Управленческий учет, 10-е изд. / Пер. с англ. – СПб.: Питер, 2008. – 1008 с.: ил. – (Серия "Бизнес-класс").
4. Boshqaruv hisobi: Darslik / A.X. Pardayev, Z.A. Pardayeva; – T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. – 556 b.
5. Moliyaviy hisob va boshqaruv hisobi. Darslik / Qurbanov Z.N. Misirov K.M.– T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2020. – 756-bet.
6. Анализ и диагностика финансово-хозяйственной деятельности предприятия: учебник / А.Д. Шеремет. – 2-е изд., доп. – Москва: ИНФРА-М, 2024. – 374 с.
7. Управленческий учет в контексте устойчивого развития: возможности и перспективы: монография / под ред. М.А. Вахрушиной. – Москва : ИНФРА-М, 2023. – 250 с.
8. Управленческий учет: учебник и практикум для вузов / О.Л. Островская, М. А. Осипов, А. Е. Карлик, Е. Б. Абдалова. – 3-е изд., перераб. и доп. – Москва: Издательство Юрайт, 2024. – 435 с.
9. Zokirovna, I. Z. (2024). Korxonalarida boshqaruv hisobining axborot bazasini takomillashtirish. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 4(Maxsus son), 65-70.
10. Tohirovich, Q. N. (2024). The Role of Performance Assessment in the Personnel Management System. American Journal of Integrated STEM Education, 1(1), 43-51.
11. Курбонова Ш. (2024). Иқтисодиётни эркинлаштириш ва диверсификациялаш шароитида иқтисодий таҳлилнинг тутган ўрни. Iqtisodiyot va ta'lim, 25(2), 397-402.
12. Ibragimova, Z. (2021). Buxgalteriya hisobi tizimining holati va uning faoliyatini baholash. Scientific progress, 2(2), 811-815.
13. Teshabayev, D. B. U. (2023). New models for analysing the financial statements of organisations. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(11), 833-839.
14. Mamajonova, G. (2022). The Mechanism of Integration of Cluster Members into the Innovative Environment for the Implementation of Innovative Projects. Miasto Przyszłości, 28, 455-458.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 6**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.